



## METAFORANI ANGLASH VA SHE'RIYAT SIRLARI (ERKIN VOHIDOV G'AZALLARI MISOLIDA)

Elmurodova Malika Alisher qizi

Navoiy Davlat Universiteti "O'zbek tili va adabiyoti"  
yo'nalishi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18017284>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2025 yil  
Ma'qullandi: 18-dekabr 2025 yil  
Nashr qilindi: 22-dekabr 2025 yil

### KEYWORDS

*Metafora, g'azal, poetika, tahlil, obrazlilik*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada metafora atamasi haqida so'z yuritilgan hamda Erkin Vohidovning bir nechta g'azallari qisqacha tahlil qilinib, ulardagi metafora hamda ramziy obrazlilikning badiiy xususiyatlari yoritilgan.*

Badiiy adabiyotning har qanday turi, ayniqsa poetika, rang-barang xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Badiiy tasvir vositalari adabiy asar tilining boy va sermazmun bo'lishini ta'minlaydi. Metafora va obrazlilik esa badiiy she'riyatda ushbu xususiyatlarning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Metafora tushunchasi antik davrdan beri mavjud bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda badiiy asar tiliga yanada sayqal berib kelmoqda. Aristotelning fikricha, "noodatiy so'zlar", ya'ni metafora, poeziya tilining belgilovchi xususiyatidir. XVIII asrdan boshlab metaforaning mavqeyi kuchayib, u nafaqat "nutq bezagi", balki tafakkur bilan bog'liq hodisa sifatida ham baholangan. XX asrga kelib esa metafora tafakkur mexanizmlaridan biri sifatida tushunilgan va uning bilish jarayonidagi ahamiyati chuqur o'rganilgan. Shu tariqa, metafora nafaqat filologiya, balki falsafa, germinenitika, psixologiya, mantiq va fan metodologiyasining muhim obyekti hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Poeziya kontekstida metaforaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u shoir kechinmalarining badiiy talqini, lirik subyekt kayfiyatini his qilish va emotsional tonallikni ifodalash vositasidir. Shu nuqtai nazardan, metaforaning poetikadagi ahamiyatini Erkin Vohidovning "Yoshlik" devonidagi bir nechta g'azallar misolida ko'rib chiqamiz.

Saydi ishq bo'lgan ko'ngilga  
Qo'ymangiz behuda ayb.  
Bo'lsa bandi domi sayyod,  
Yo'q erur orzuda ayb.  
Bandga tushgan bu ko'nguldur,  
Menda, ayting, ne gunoh,  
Dil qushiga dom qo'ygan  
Ul ikki joduda ayb.  
Jodu ko'zlar bandi yolg'iz-  
Sen emas, tutqun yurak,

Avval oxir ko'hna meros  
Ishq degan tuyg'uda ayb.

Jonli va jonsiz predmetga inson holati va faoliyatining ko'chirilishi metafora hosilasi bo'lganidek, shoir Erkin Vohidovning "Yo'q emish orzuda ayb" nomli g'azalidan keltirilgan parchasida "ohu", "ikki jodu", "tutqun yurak" kabi metaforaning g'oyat go'zal va o'ziga xos namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Sen o'zing kirding ko'ngilga  
G'am sipohin boshida,  
G'aflat uyqusida erdim,  
Ayt, nechuk fahm aylading?  
Sen ko'ngil mulkini toroj,  
Qalb uyin vayron etib,  
Pora qilding tanimni,  
Jonima rahm aylading.

Ushbu misralarda ham metaforaning bo'rtib turganini yaqqol sezishimiz mumkin. Masalan, lirik obraz qalbining "talon-taroj qilinishi" va qalb mulkini

"vayrona binolarga qiyoslash" orqali shoir obrazlilikning yorqin va badiiy ifodasini yaratadi. Shu tariqa, metafora va obrazlilik birgalikda lirik subyektning ichki kechinmalari va ruhiy holatini jonli tasvirlashga xizmat qiladi.

Seni yotlar tugul hatto  
Qilurman rashk o'zimdan ham,  
Uzoqroq termulib qolsam  
Bo'lurman g'ash ko'zimdan ham.  
Ko'zim yongay senga nargis –  
Ko'zin tiksa chamanlarda,  
Yashirmam, lolaga rashkim  
Ayon bo'lgay yuzimdan ham.  
Degaylarki, charosu  
Ol gilos olmish labingdan rang,  
Labing tegsa hasad qilgum  
Gilos birlan uzumdan ham.

Rashkdan oshiq yuzining lola kabi qip qizil bo'lishi, gilosning esa yorning labidan o'z rangini olishi haqidagi tasvirlar Erkin Vohidov ijodida metaforaning mahorat bilan qo'llanganini ko'rsatadi. Shoir ushbu obrazlar orqali oshiqning ichki kechinmalarini, rashk va muhabbat tuyg'ularining uyg'unligini yorqin va ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Bu esa shoirning naqadar zabardast so'z ustasi ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

**Xulosa.** Erkin Vohidov XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridagi o'zbek poeziyasida metaforaning eng go'zal va ta'sirchan namunalarini yaratgan ijodkorlardan biridir. Shoir ijodida metafora nafaqat badiiy bezak, balki poetik tafakkurning muhim unsuri sifatida namoyon bo'lib, bugungi kun o'quvchilari uchun poetikaning nozik va sermazmun qirralarini kashf etishda dasturilamal vazifasini bajaradi. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek: "Hech ikkilanmay, komil ishonch bilan aytish mumkinki, Erkin Vohidov o'zbek she'riyatining ko'rki va faxridir. Bu fikrda zarracha mubolag'a yo'q." Ushbu baho shoir ijodining badiiy yuksakligi va adabiyotimizdagi beqiyos o'rnini yana bir karra tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.R. Kungurov. "O'zbek tilida tasviriy so'zlar". O'zbekiston "Fan" nashriyoti. T.: 1966.
- 2.Obidjon Karimov. "Metafora - poetik tafakkur asosi". "Jahon adabiyoti", 2014-yil 8-son
- 3.Erkin Vohidov. "Tanlangan asarlar"."Sharq" nashriyoti. T.:2019



INNOVATIVE  
ACADEMY